Umumta'lim maktablarida immersiv texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish	579
<i>Axmedova Dilnoza Baxtiyor qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya o'qitishning takomillashtirilgan metodik tizimi.....	581
<i>Karshiboyeva Dilafuz Boxodirovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni .	584
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
STEAM yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	587
<i>O'rinova Feruza O'ljayevna, To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	591
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
Tasavvufda ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	595
<i>Satimova Sevinch Sardorbekovna</i>	
Teaching Literary and Non-Literary Forms of Speech to Young Learners.....	600
<i>Nargiza Tulyaganova</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari	604
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Cerebral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tahlili	608
<i>Karimberdiyev Azamat Axmadjon o'g'li</i>	
O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	614
<i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida).....	617
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>	
Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari	624
<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	




STEAM YONDASHUVI ASOSIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
SCHOOL EDUCATION
MAKTAB TA'LIMI



O'rinova Feruza O'ljayevna

Farg'ona davlat universiteti,
maktabgacha ta'lim kafedrası professori
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent



To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimida fanlararo integratsiya, innovatsion metodlar hamda ijodiy faoliyat orqali bolalarda kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, pedagoglarning roli, monitoring tizimi hamda raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish masalalari kompleks tarzda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, innovatsion yondashuv, rivojlantiruvchi markazlar, fanlararo integratsiya, kognitiv kompetensiya, ijodiy tafakkur, monitoring tizimi.

Abstract: This article analyzes the issues of improving the effectiveness of developmental centers based on the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) approach. Based on international experience, it highlights the opportunities for developing children's cognitive and creative competencies through interdisciplinary integration, innovative methods, and creative activities in preschool education. In addition, the role of teachers, monitoring systems, and the integration of digital technologies are comprehensively examined.

Key words: STEAM education, innovative approach, developmental centers, interdisciplinary integration, cognitive competence, creative thinking, monitoring system.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы повышения эффективности деятельности развивающих центров на основе подхода STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics). На основе зарубежного опыта освещаются возможности развития когнитивных и творческих компетенций у детей посредством междисциплинарной интеграции, инновационных методов и творческой деятельности в системе дошкольного образования. Также комплексно рассматриваются роль педагогов, система мониторинга и интеграция цифровых технологий.

Ключевые слова: STEAM-образование, инновационный подход, развивающие центры, междисциплинарная интеграция, когнитивная компетенция, творческое мышление, система мониторинга.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida STEAM yondashuvi muhim pedagogik konsepsiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur model ta'limni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, uni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida rivojlantiruvchi markazlar orqali STEAM yondashuvini joriy etish bolalarning tabiiy qiziqishi, tajriba o'tkazishga bo'lgan intilishi hamda bilish faolligini qo'llab-quvvatlaydi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar qatorida STEAM modeli (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) alohida o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv ta'limni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni sifatida, balki bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish hamda texnik va ijodiy tafakkurni uyg'un ravishda shakllantirishga yo'naltirilgan tizim sifatida talqin etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida STEAM faoliyatini tashkil etish bolalarning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash, bilish jarayonlarini faollashtirish va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu yosh davrida bola atrof-muhitni faol o'rganishga, tajriba o'tkazishga, savollar berishga hamda o'z kashfiyotlarini amaliy jihatdan sinab ko'rishga kuchli ehtiyoj sezadi. Shu bois, STEAM yondashuvi markazli ta'lim muhiti bilan uyg'unlashgan holda ta'lim jarayoni tabiiy, faol va ijodiy xarakter kasb etadi.

Rivojlantiruvchi markazlar bolalarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim o'quv muhitidir. Mazkur markazlar orqali bola turli fan sohalarini amaliy tajriba asosida o'zlashtiradi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligi, avvalo, bolalarning kognitiv (bilish) va ijodiy kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkoniyati bilan belgilanadi. Bunda bola tayyor bilimni passiv tarzda qabul qilmaydi, balki uni o'z faoliyati jarayonida mustaqil ravishda kashf etadi, sinovdan o'tkazadi, natijalarni tahlil qiladi va tegishli xulosalar chiqaradi. Natijada u o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

STEAM yondashuvi ta'lim jarayonini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishni talab etadi. Har bir rivojlantiruvchi markazda fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) komponentlari o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritadi. Masalan, tajriba markazida bola tabiat hodisalarini kuzatar ekan, u ilmiy tahlilni amalga oshiradi (S), natijalarni o'ichaydi (M), tajriba sharoitini yaratadi (E), texnik vositalardan foydalanadi (T) hamda natijalarni tasviriy shaklda ifodalaydi (A). Bunday integratsiyalashgan faoliyat bolaning tafakkurini kompleks tarzda faollashtirib, idrok, xotira, mantiqiy tahlil va tasavvur jarayonlarining bir vaqtning o'zida rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois rivojlantiruvchi markazlarda STEAM yondashuvini samarali tashkil etish kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv kompetensiyalar deganda bolaning bilish faoliyati jarayonida axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, faraz ilgari surish, xulosa chiqarish va amaliy natija yaratish qobiliyatlari tushuniladi. STEAM faoliyati aynan ushbu jarayonlarni tabiiy va o'yin asosidagi muhitda rivojlantiradi. Masalan, bola tajriba markazida suvning bug'lanish jarayonini kuzatar ekan, u nafaqat hodisani idrok etadi, balki uning sabablarini tahlil qiladi, farazlar ilgari suradi, natijalarni aniqlaydi hamda ularni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. Bu jarayon tafakkur, xotira, idrok va tahlilning o'zaro uyg'un faoliyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bola yangi vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llashni o'rganadi, bu esa metakognitiv (ya'ni o'z fikrlash jarayonini boshqarish) ko'nikmalarni shakllantiradi.

Ijodiy kompetensiyalar esa bolada yangi g'oyalar yaratish, tasavvur qilish, muammoli vaziyatlarda noodatiy yechimlar topish, dizayn va estetik idrok asosida fikrlash qobiliyatlarini ifodalaydi. STEAM faoliyati mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tabiiy va samarali muhit yaratadi. Masalan, ijod markazida bola oddiy materiallardan yangi model yaratadi; bu jarayonda u muhandislik, matematika va san'at elementlarini o'zaro uyg'unlashtiradi. Natijada bola har bir buyum yoki hodisaga ko'p qirrali yondashishni, yangi g'oyalar ilgari surishni hamda amaliy yechimlar ishlab chiqishni o'rganadi. Bu jarayon orqali bola "tayyor bilim"ni emas, balki "yaratilgan bilim"ni egallaydi.

Kognitiv va ijodiy kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi bola tafakkurining mustaqil shakllanishiga xizmat qiladi. Agar kognitiv kompetensiya "nimani va qanday bilaman" degan savolga javob bersa, ijodiy kompetensiya "mavjud bilimlardan qanday foydalanaman" degan masalani hal etadi. Shu bois STEAM faoliyati orqali bola o'zlashtirgan bilimlarini yangi kontekstlarda qo'llash, ularni amaliy tajribaga tatbiq etish, muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlantiruvchi markazlarda STEAM faoliyatining samaradorligini oshirishda tarbiyachining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi ushbu jarayonda an'anaviy bilim beruvchi sifatida emas, balki faoliyatni boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va ta'limiy muhitni tashkil etuvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. U bolaga tayyor yechimni taqdim etmaydi, balki savollar, muammoli vaziyatlar va topshiriqlar orqali uni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, "Nima uchun bu narsa harakatlanadi?", "Qanday qilib suvni ko'tarish mumkin?", "Qanday yo'l bilan bu qurilma mustahkam turadi?" kabi ochiq savollar orqali bolada tahliliy va tajribaga asoslangan tafakkur rivojlantiriladi.

Shu bilan birga, tarbiyachining kasbiy tayyorgarligida STEAM kompetensiyalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Tarbiyachi texnologik vositalardan samarali foydalanishni bilishi, fanlararo bog'lanishlarni tahlil qila olishi hamda ijodiy loyihalarni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Mazkur maqsadda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar uchun STEAM yo'nalishidagi metodik seminarlar, treninglar va master-klasslarni tashkil etish samarali natija beradi.

STEAM asosida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlar faoliyatining samaradorligini baholashda monitoring tizimini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Ushbu tizim bola rivojlanishini faqat baholash bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish va yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Monitoring jarayoni bolalarning dastlabki kognitiv va ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash, markazlardagi faoliyat davomida bola ishtiroki, mustaqilligi, savol berish faolligi, faraz ilgari surish darajasi hamda ijodiy yondashuvini muntazam kuzatish va qayd etish, shuningdek, o'zlashtirilgan bilimlar, shakllangan kompetensiyalar va rivojlanish dinamikasini kompleks tahlil qilish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Monitoring tizimida portfel (bola ishlar to'plami), kuzatuv jurnallari, refleksiya savolnomalari va bolalar ishlari namunalari asosida sifatli tahlil olib borish tavsiya etiladi. Baholash jarayonida "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" yondashuv mezonlaridan voz kechib, faoliyat jarayonini qadrlash tamoyiliga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, bolaning muammoga qanday yondashgani, qanday savollar bergani va qanday g'oyalarni ilgari surgani monitoring markazida bo'lishi lozim.

Samaradorlikni oshirishning yana bir muhim yo'nalishi rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish bilan bog'liq. Interaktiv doskalar, raqamli qurilmalar, simulyatsiyalar va vizual tajriba videolari bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi, diqqatini jalb etadi hamda kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, tajriba markazida virtual mikroskop yoki raqamli ob-havo stansiyasidan foydalanish bolaning ilmiy tahlil ko'nikmalari va texnologik tafakkurini uyg'un ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlar bolalarda fanlararo tafakkur, muammoli tahlil, ilmiy izlanish, texnik fikrlash hamda estetik idrokni uyg'un shaklda rivojlantirish imkonini beradi. Kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish ushbu jarayonning markazida turadi, chunki ular bolaning intellektual salohiyatini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'laydi. Tarbiyachi esa mazkur jarayonning yo'naltiruvchisi sifatida o'zining metodik tayyorgarligi, kuzatuvchanligi va innovatsion yondashuvi orqali markazlar samaradorligini belgilaydi.

Monitoring tizimi, interfaol usullar hamda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali STEAM asosidagi markazlar faoliyati yanada takomillashtiriladi. Natijada maktabgacha yoshdagi bola o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va innovatsion tafakkurga ega shaxs sifatida shakllanadi. Shu tariqa STEAM yondashuvi ta'limni kelajak kompetensiyalariga moslashtiruvchi, rivojlantiruvchi va kognitiv salohiyatni to'liq ro'yobga chiqaruvchi universal model sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bolalarda kompleks tafakkur, fanlararo bog'lanishlarni anglash, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik konsepsiya sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u ta'limni faqat nazariy bilim berishdan amaliy faoliyatga yo'naltiradi, ya'ni bola o'z bilimlarini tajriba, kuzatish, konstruktorlik faoliyati, o'yin va ijodiy jarayonlar orqali mustaqil ravishda shakllantiradi. Bu esa ta'lim jarayonini passiv o'zlashtirishdan faol bilish faoliyatiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi o'zining nazariy-metodologik asoslarini konstruktivizm, kognitiv psixologiya hamda integrativ o'qitish nazariyalariga tayanadi. Piaget, Vygotskiy, Bruner va Dewey kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan "bilimni faol kashf etish", "yaqin rivojlanish zonasida o'qitish" hamda "tajriba asosida o'rganish" tamoyillari STEAM konsepsiyasining ilmiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tizimida, xususan, rivojlantiruvchi markazlar faoliyatida qo'llanilganda, bolalarning bilish faoliyati tabiiy, o'yinli va ijodiy muhitda shakllanadi.



Rivojlantiruvchi markazlar STEAM yondashuvini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy pedagogik maydon hisoblanadi. Har bir markaz (matematika, tabiat, konstruktorlik, ijod va tajriba) o'zida fanlararo integratsiyani mujassamlashtiradi. Jumladan, matematika markazida mantiqiy va muhandislik tafakkuri, tabiat markazida kuzatuvchanlik va ilmiy fikrlash, ijod markazida estetik idrok va dizayn tafakkuri, konstruktorlik markazida texnik tafakkur, tajriba markazida esa ilmiy tahlil va sabab-oqibatli fikrlash rivojlantiriladi. Ushbu markazlarda fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) komponentlari uyg'un holda qo'llanilganda, bola o'z faoliyatida idrok, tafakkur, xotira, diqqat va tasavvur kabi barcha kognitiv jarayonlarni kompleks tarzda ishg'a soladi.

Rivojlantiruvchi markazlarda STEAM yondashuvini samarali joriy etish mexanizmlari sifatida o'yin, tajriba, muammoli topshiriqlar hamda loyihaviy faoliyat muhim vositalar sifatida e'tirof etiladi. Aynan shu faoliyatlar orqali bola o'zlashtirayotgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radi, farazlar ilgari suradi, natijalarni kuzatadi va xulosalar chiqaradi. Shu jarayonda u mantiqiy va ijodiy tafakkurni birgalikda rivojlantiradi. Demak, STEAM integratsiyasi ta'limni "nimalarni bilish kerak" bosqichidan "qanday qilib bilish kerak" bosqichiga olib chiqadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan markazlar faoliyati bolalarda kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni samarali rivojlantiradi. Kognitiv kompetensiya axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini ifodalasa, ijodiy kompetensiya bilimni yangi vaziyatlarda qo'llash, yangi g'oyalar ilgari surish va noodatiy yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu ikki kompetensiyaning uyg'un rivojlaniishi bolaning tafakkurini mustaqillikka olib keladi hamda uning o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, tadqiqotda tarbiyachining roli rivojlantiruvchi markazlar samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida asoslab beriladi. Tarbiyachi bu jarayonda bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, motivator va ta'limiy muhitni tashkil etuvchi fasilitator sifatida ishtirok etadi. U bolaga tayyor javoblarni bermaydi, balki savollar, muammoli vaziyatlar va tajribalar orqali ularni izlanishga, tahlil qilishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, baholash jarayonida "natija qanday bo'ldi" degan mezondan ko'ra "bola bu jarayonda qanday fikrladi va qanday yondashuvni qo'lladi" tamoyiliga ustuvor ahamiyat beriladi.

STEAM markazlari faoliyatining samaradorligini oshirishda monitoring tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Monitoring bolalarning rivojlanishini baholash, tahlil qilish va individual yondashuvni rejalashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Unda portfel usuli, kuzatuv jadvallari, refleksiya suhbatlari, bolalar ishlari namunalari hamda raqamli kuzatuv texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday baholash tizimi bola faoliyatini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida emas, balki sifat jihatidan – tafakkur jarayoni, ijodkorlik darajasi va bilish faolligi orqali kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlar ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur yondashuv bolalarda fanlararo tafakkur, muammoli tahlil, amaliy tajriba, texnik fikrlash hamda san'at va dizayn idrokini uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ta'limning ustuvor maqsadi bo'lgan mustaqil fikrlaydigan, tahliliy va ijodiy salohiyatga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvini maktabgacha ta'lim muassasalarida tizimli ravishda joriy etish orqali bolalarda ilmiy izlanish va texnik tafakkurni erta yoshdan rivojlantirish, bilimni mustaqil ravishda yaratish hamda uni amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish, shuningdek, integrativ, muammoli va o'yin asosidagi ta'lim muhitini yaratish hamda tarbiyachilarning innovatsion metodik tayyorgarligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Natijada STEAM yondashuvi nafaqat rivojlantiruvchi markazlar faoliyati samaradorligini oshiradi, balki butun maktabgacha ta'lim tizimini ijodiy fikrlaydigan, fanlararo aloqalarni chuqur anglaydigan va kelajakda innovatsion tafakkur egalarini tayyorlashga xizmat qiluvchi zamonaviy tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – 2022.
2. U.M. Xalikova. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022.
3. V. Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Kenjabayeva, N.A. Miftayeva. O'yin orqali ta'lim olish. – Toshkent, 2020.
4. Н.Г. Зайцева. Робототехника в детском саду. – Краснодар, 2019.
5. И.А. Помораева, В.А. Позина. Занятия по формированию элементарных математических представлений в средней группе детского сада. – Москва, 2019.
6. Abobakirova O.N. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. O'quv qo'llanma. I nashr. – Farg'ona, 2022.
7. F. O'rinova. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Farg'ona: "Poligraf Super Servis", 2024.
8. F. O'rinova. Maktabgacha ta'lim tarbiya metodikasi. Darslik. – Farg'ona: "Poligraf Super Servis" nashriyoti, 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.